Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARDA DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK ASOSIDA RAQAMLI XIZMATLARNI TAKOMILLASHTIRISH



Xalimov Shaxboz Xalimovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz qishloq hududlarida davlat xususiy sherikchilik asosida xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishga oid muammolar, tizim faoliyati mexanizmini takomillashtirish, raqamli xizmat ko‘rsatish tizimi infratuzilmasini joriy etish, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yuksaltirish orqali aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, raqamli xizmat, “aqlli qishloq”, raqamli qishloq xo‘jaligi, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma, diversifikatsiya, texnologiya, axborot.

Abstract: In this article, in the context of the digital economy, problems related to improving the provision of services on the basis of public-private partnerships in rural areas of our country are considered, improving the functioning mechanism of the system, introducing infrastructure, a digital service system, improving the quality of services provided, and developing proposals and recommendations.

Key words: digitalization, digital service, “smart village”, digital agriculture, public-private partnership, infrastructure, diversification, technology, information.

Аннотация: В данной статье в условиях цифровой экономики рассматриваются проблемы, связанные с совершенствованием оказания услуг на основе государственно-частного партнерства в сельской местности нашей страны, совершенствованием механизма функционирования системы, внедрением инфраструктуры проведена система цифрового обслуживания, повышение качества предоставляемых услуг, разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: цифровизация, цифровой сервис, “умная деревня”, цифровое сельское хозяйство, государственно-частное партнерство, инфраструктура, диверсификация, технологии, информация.

KIRISH

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida jahon xo‘jaligida qishloq xo‘jaligi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim sektorlardan biri hisoblanadi. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan dunyo aholisining 40% dan ortig‘ini ish bilan ta‘minlaydi va 7 milliardga yaqin odamni oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish bilan o‘ziga xos o‘rin egallaydi ^[9]. Ammo mavjud imkoniyatlar bilan taqqoslanganda qishloq xo‘jaligi sohasida hozirgi davrda bir qator muammolar xususan, zamonaviy innovatsion, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati mavjud emasligi, qishloq hududlarning infratuzilmasining rivojlanmaganligi hamda yetishtirilgan mahsulotlarning mahalliy, jahon bozorlariga chiqishidagi muammolar mavjuddir. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “...yagona integratsion platformani axborot xizmatlari bilan boyitish, jumladan, kadastr, ob-havo ma‘lumotlari, arizalarni elektron rasmiylashtirish tizimi, kreditlash va subsidiyalash, agroxizmatlar, agroskouting xizmati, fitosanitariya xizmatlari, monitoring xizmatlari va boshqa qishloq xo‘jaligi jarayonlarini kuzatish tizimini joriy etish” ^[1]. deb ta‘kidlab o‘tganliklari qishloq joylarda ko‘rsatiladigan xizmatlarni diversifikatsiya qilish, infratuzilmasini rivojlantirish, uning qonunchilik bazasini takomillashtirishga yo‘nalish bermoqda. Bu esa hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning qishloq joylarda tatbiq etish natijasida mobil pul va elektron tijorat platformalari kabi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, vaqt tejalishi, ortiqcha xarajatlarni oldining olish kabi imkoniyatlar yaratdi. O‘z navbatida, raqamli texnologiyalar rentabellikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, bozorga kirishni oshirish va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga xizmat qiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Q. J. Mirzayev, M. Q. Pardayev, O. M. Pardayev “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti” o’quv qo’llanmasida xizmatlar sohasi iqtisodiyotining nazariy masalalari, sohani tarmoqlar bo’yicha rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari va istiqbollari, har bir tarmoqning o’ziga xos xususiyatlari hamda ushbu soha faoliyatini baholash va hisobga olish yo’llari qarab chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalariga xizmat ko’rsatish yo’nalishlari, faoliyat mazmuni va ularni tashkil etish yo’llari tahlil etilgan ^[3].

S. B. Boboqulov, G. O. Akramovlarning “O’zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo’llari” nomli ilmiy maqolasida O’zbekistonda elektron biznes faoliyatini ahamiyati, uni rivojlantirish, davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, elektron biznes faoliyatini tashkil etish bo’yicha izlanishlar olib borgan. Shuningdek, elektron biznes faoliyatini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan ^[4].

G. F. Quvatovaning “Qishloq joylarda xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirish” nomli ilmiy maqolasida qishloq joylarda xizmat ko’rsatish sohasida xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga yo’naltirilgan qarashlar ko’rib chiqilgan hamda bugungi kunda qishloq joylarda xizmat ko’rsatishni rivojlantirish muammolari atroflicha tahlil qilingan. Bundan tashqari, aholi turmush darajasini yuksaltirish bo’yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan ^[5].

F. U. Begaliyev, O. M. Saydullayevlarning “Qishloq xo’jaligini (“Aqlli” qishloq xo’jaligi)ga o’tkazishda raqamli texnologiyalarning o’rni” nomli ilmiy maqolasida Qishloq xo’jaligida raqamli texnologiyalardan foydalanish ishlarning sifatiniva unumdorlik darajasini yetarlicha oshirishi, bir qatorda mahsulotlarni yetishtirish hamda tayyorlashga ketadigan ishchi kuchi va sarf xarajatni sezilarli darajada kamaytirishi, “Aqlli qishloq xo’jaligi” raqamli platformasi orqali aholi turmush faravonligiga ta’sir qilish haqida izlanishlar olib borilgan bo’lib taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan ^[6].

Z. K. Raximovning “Qishloq joylarda servis xizmat ko’rsatishni klaster asosida rivojlantirish” nomli ilmiy maqolasida qishloq joylarda servis xizmat ko’rsatishni klaster asosida rivojlantirishning ilmiy va nazariy asoslari yoritib berilgan. Ma’lumotlar muallif tomonidan mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida shakllantirilgan ^[7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur muammoni tadqiqoti jarayonida statistik va iqtisodiy tahlil, qiyoslash, guruhlash, tanlab kuzatish hamda induksiya va deduksiya, analiz va sintez, monografik, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, mantiqiy yondashuv kabi uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq joylarda xizmat ko’rsatish jarayonini raqamlashtirish orqali rivojlantirish ko’p tomonlama davlat xususiy sherikchilik (DXSH) asosida shakllantirish muhim hisoblanib, bu borada mamlakatimiz olimlari tomonidan yetarli darjada tadqiqotlar olib borilmagan soha rivojiga ta’sir etmoqda.

Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko’ra qishloq joylarda xizmat ko’rsatish jarayonini raqamlashtirishda DXSH dasturining muhimligini ta’kidlaydilar. Masalan, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) hisobotida ta’kidlanishicha, DXSH dasturlari asosida rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq joylarda kapital-lashuvi qimmat hisoblanuvchi raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko’rsatish jarayonini tashkil etish, qishloq joylarda raqamli xizmat ko’rsatish texnologiyalarini qo’llashni cheklovchi moliyaviy va texnik to’siqlarni yengib o’tishga yordam beradi ^[8].

Malakatimizda raqamli xizmat ko’rsatishni tashkil etish, raqamlashtirish jarayonini bosqichma bosqich amalga oshirish, mavjud imkoniyatlarimizdan samarali foylanish orqali xizmat ko’rsatishni raqamlashtirishni tashkil etish natijasida yildan yilga o’sib borishini kuzatishimiz mumkin. Buning sabalari sifatida mamlakatimiz tomonidan olib boriladigan oqilona siyosat sababli bo’lmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi qabul qilingan “Raqamli O’zbekiston–2030” Strategiyasida “savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko’rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o’zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish” ^[2] ustuvor maqsad belgilab berilganligi xizmat ko’rsatish sohasini modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, “start-up”, “nau-xau”lardan keng foylanish orqali xizmat ko’rsatishni intensive o’sishiga erishishimiz lozimligini belgilab berilgan hamda olib borilgan oqilona islohotlar amaliyotda o’z samarasini ko’rsatmoqda (1-jadval).



1-jadval: O'zbekiston Respublikasi AKT xizmatlari importi (ming. AQSH. doll.)

Nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Telekommunikatsiya xizmatlari	51 390,1	34 239,4	56 312,5	94 760,6	103 844,8	138 761,3
Kompyuter dasturlash xizmatlari	-	7 352,5	6 808,2	13 655,0	8 515,6	14 756,0
Boshqa kompyuter xizmatlari	5 447,2	2 547,8	5 769,1	6 283,8	6 206,4	7 792,6
Axborot agentligi xizmatlari	-	399,7	186,9	2 729,1	3 348,9	52 619,1
Boshqa axborot xizmatlari	2 899,1	3 100,8	3 510,5	14 845,2	20 624,1	25 263,7

1-jadval ma'lumotlaridan shuni tahlil qilishimiz mumkinki 2017-yilda respublikamizda AKT xizmatlari importida telekommunikatsiya xizmatlari 51390,1 ming AQSH dollari, boshqa kompyuter xizmatlari 5447,2 ming AQSH dollari, boshqa axborot xizmatlari 2899,1 ming AQSH dollarini tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Bu dinamika 2022-yilga kelib telekommunikatsiya xizmatlari 138761,3 ming AQSH dollari, boshqa kompyuter xizmatlari 7 792,6 ming AQSH dollari, boshqa axborot xizmatlari 25 263,7 ming AQSH dollariga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. shuningdek, raqamli iqtisodiyotga mamlakatimiz tomonidan alohida e'tibor berilishi natijasida kompyuter dasturlash xizmatlari 2018-yildan import qilina boshlagan bo'lib 2022-yilga kelib uning ko'rsatkichi ming 14 756,0 AQSH dollari hamda axborot agentligi xizmatlari 52 619,1 AQSH dollarni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki AKT sohasi mamlakatimizda rivojlanishi natijasida xizmat assortimentlarini ko'payishi holatlarini ko'rishimiz mumkin. Buning sababi sifatida davlatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida AKT xizmatlari importi ko'payishi bilan asoslashimiz mumkin. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda AKT xizmatlari eksport dinamikasini tahlil qilishimiz natijasida AKT xizmatlar ko'rsatish haqida batafsil xulosa qilishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval: O'zbekiston Respublikasi AKT xizmatlari eksporti (ming. AQSH. doll.)

Nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Telekommunikatsiya xizmatlari	143 168,7	150 592,7	156 677,1	151 749,6	156 156,3	180 491,3
Kompyuter dasturlash xizmatlari	-	806,1	701,0	5 798,6	4 778,2	56 426,5
Boshqa kompyuter xizmatlari	5 623,4	6 229,2	8 044,2	8 313,6	7 539,1	40 495,4
Axborot agentligi xizmatlari	-	-	85,3	-	-	-
Boshqa axborot xizmatlari	1 858,0	2 057,3	1 988,8	3 648,9	12 265,7	28 385,0

Bu jadval ma'lumotlari asosida 2017-yilda telekommunikatsiya xizmatlari 143168,7 ming AQSH dollari tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 180491,3 AQSH dollari miqdori oshganli, yani mamlakatimizda ushbu xizmat eksporti samarali tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Kompyuter dasturlash xizmatlari 2017-yilda eksport qilinmaganligi, aksincha bu xizmat 2018-yilda 806,1 ming AQSH dollari, 2022-yilga kelib 56426,5 ming AQSH dollari qariyb 70 barobarga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Boshqa kompyuter xizmatlari 2017-yilda 5 623,4 ming AQSH dollari miqdorida eksport qilingan bo'lsa, 2022-yilga kelib 40495,4 ming AQSH dollari, boshqa axborot xizmatlari 2017-yilda 1858,0 ming AQSH dollari, 2022-yilga kelib 28385,0 ming AQSH dollari ko'rsatkichida o'sish tendensiyasiga erishgan. Ammo Axborot agentligi xizmatlari O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi jadval ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak faqatgina 2019-yilda 85,3 ming AQSH dollari miqdorida eksport qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki mamlakatimizda axborot agentligi xizmatlarni ko'rsatish jarayoni ortda qolganligini, soha faoliyatida muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu sohaga alohida e'tibor berish, axborot agentligi xizmatlari yaxshi rivojlangan xorij mamlakatlar tajribasini chuqur tahlil etgan holda mamlakatimizda joriy etish, malakali mutaxassislarni jalb etishimiz, axborot agentligi xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirish maqsadida moliyaviy, huquqiy, tashkiliy, institutsional qo'llab-quvvatlashimiz lozimligini ko'rsatmoqda [5].

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda ishlab chiqilgan normativlar, strategik dasturlar, institutsional islohotlarning asosiy maqsadi iqtisodiyotimizni rivojlantirish, aholi farovonligini ta'minlash hamda rivojlangan mamlakatlar qatoriga o'tishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Davlatimizda raqamli texnologiyalar, dasturiy ta'minotlar, dasturlashtirish, raqamli infratuzilmani tashkil etish jarayoni qimmat qiymatlarda bo'lganligi, raqamlashtirishda mutaxassislarni yetishmasligi, raqamli texnologiyalardan foydalanishda aholi savodxonligini yetishmasligi, raqamli texnologiyalarning aksariyati xorijdan import bo'lishi qishloq joylarda xizmat ko'rsatish jarayonini raqamlashtirishda to'siq bo'ladigan muammolar hioblanadi [6]. Ammo qishloq joylarda raqamli xizmat ko'rsatish jara-



yonini raqamlashtirish asosida xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirishimiz, ishlab chiqarish xarajatlarini keskin kamaytirishimiz, qayta tiklanmas resurslardan samarali foydalanishimiz, soha rentabiligini oshirishimiz hamda korrupsiya holatlarini oldining olishimizda muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olishimiz lozimligidan kelib chiqib DXSH dasturi doirasida qishloq joylarda xizmat ko'rsatish jarayonini raqamlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan kelib chiqib mamlakatimiz qishloq joylarida raqamli xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etishimizda DXSH dasturidan foydalanishimiz natijasida salbiy hamda ijobiy omillar mavjudligini ko'rsatadi. Albatta, biz ushbu omillarni chuqur tadqiq etmasdan turib qishloq joylarda xizmat ko'rsatishni raqamlashtira olmaymiz (3-jadval).

3-jadval: Qishloq joylarda xizmat ko'rsatishni raqamlashtirishda davlat-xususiy sheriklikning afzalliklari va kamchiliklari

Qishloq joylarda xizmat ko'rsatishni raqamlashtirishda DXSH ning afzalliklari	Qishloq joylarda xizmat ko'rsatishni raqamlashtirishda DXSH kamchiliklari
Tabiiy resurslarning tejalishi	Raqamlashtirish jarayonining qimmatligi
Xavf-xatarlarning kamayishi	Kiber va xakkerlik hujumlari
Xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati	Mutaxassislarning yetishmasligi
Shaffoflikni ta'minlanishi	Bilim, ko'nikma va malakaning yetishmasligi
Vaqtini tejash	Ishsizlikning vujudga kelishi
Korrupsiyani oldining olish	Tizim faoliyatiga ishinchsizlik
Xizmat sifatini yuksaltirish	
Sarf-xarajatlarni kamayishi	
Erkin raqobat muhitini shakllanishi	
Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash	

Jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib qishloq joylarda xizmat ko'rsatishni raqamlashtirishda DXSH dasturini qo'llash natijasida salbiy omillarga nisbatan ijobiy omillar ko'proq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib qishloq joylarda xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yuqori kapitallarni talab etganligi bois DXSH doirasida moliyalashtirish ham tadbirkorlarning ham davlatning xizmat ko'rsatish jarayonida teng sherikchilikda faoliyatni tashkil etishiga erishishimiz mumkin [7]. Bunda, albatta, ko'rsatiladiga va yaratiladigan xizmatlarning miqdorini ko'payisha, sifatining yuksalishiga, aholi turmush farovonligiga erishishga shuningdek, jahon bozorlariga erkin chiqish imkonini yaratib beradi.

Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish jarayonini raqamlashtirish hududa bir qator islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda raqamli komponentlarni o'zrni o'ziga xos o'rin tutib xizmat ko'rsatish jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bular quyidagi texnologiyalardir:

- "Big Date" texnologiyasi;
- Bulutli texnologiya;
- Optik tolali beshinchi avlod internet tarmog'i
- "Blokcheyn" texnologiyasi;
- Suniy intellekt;
- 3D raqamli texnologiyasi;
- Zamonaviy kompyuterlar va dasturiy ta'minotlar;
- Robototexnologiya, dronlar;
- Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyasi;
- "Aqlli shahar" texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali qishloq joylarda raqamli xizmat ko'rsatishni tashkil etishimiz mumkin bo'ladi [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib mamlakatimizda qishloq joylarda raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatishni xususiyatlari quyidagilardan tashkil topadi:

*Birinchi*dan, qishloq joylarda raqamli xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etishda davlat xususiy sherikchilikda amalga oshirish raqamli xizmat ko'rsatishni shakllantirishda munosib o'rin tutishi [9];

*Ikkinchi*dan, qishloq joylarda raqamli xizmat ko'rsatishni tashkil etishda davlat tomonidan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish orqali raqamli xizmat ko'rsatish yanada keng miqyosda rivojlanish imkonini beradi;

*Uchunchi*dan, raqamli xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish, yuritishda malakali mutaxassislarndan unumli foydalanish, mutaxassislarni tayyorlash, mavjudlarini xorij mamlakatlarida qayta tayyorlash orqali xizmat ko'rsatish jarayonini yanada keng va sifatli tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda;



To'rtinchidan, malakatimizda qishloq joylarda raqamli xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish, mavjudlari faoliyatini diversifikatsiyalashtirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali xizmat ko'rsatish subyektlar faoliyatini yanada takomillashtirish mumkinligi;

Beshinchidan, mamlakatimizga import bo'ladigan raqamli texnologiyalarga bojxona boji imtiyozlari berish, yurtimizda dasturiy ta'minot, raqamli texnologiya, innovatsion loyihalar ishlab chiqaruvchilarga davlat dotatsiyalari, imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari berish orqali raqamli xizmat ko'rsatishni rivojlantirish imkonini beradi.

Fikrimizcha mamlakatimiz qishloq joylarida xizmat ko'rsatish faoliyatini DXSH asosida raqamlashtirish orqali ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yuksalishi, iqtisodiy o'sishga erishish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ularni tejash, aholi turmush farovonligini yuksaltirish, xalqaro bozorlarga erkin chiqish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda YIMda xizmat ko'rsatish ulushini ko'paytirishda xizmat qilishi mumkin ^[4]. Bu albatta, mamlakatimiz iqtisodiyoti drayveri bo'lmish xizmat ko'rsatish sohasini rivojida munosib hissa qo'shadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, qishloq joylarda xizmat ko'rsatishni raqamlashtirish davlat xususiy sherikchilikning muvaffaqiyati turli omillarga, jumladan, hamkorlarning roli va ularning mas'uliyati, raqamli komponentlar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlarga bog'liqdir. Buning rivojiga qishloq joylarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar, fermer xo'jaliklari, servis ko'rsatuvchi subyektlar va aholini jalb qilish orqali erishishimiz mumkin.

Keltirilgan fikrlar, xulosalardan qishloq joylarda davlat xususiy sherikchilik asosida xizmat ko'rsatishni raqamlashtirishda quyidagi taklif va tavsiyalarga kelindi:

- raqamli, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, qishloq joylardagi xizmat ko'rsatish subyektlarning axborot va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;
- mobil telefonlar va raqamli platformalardan samarali foydalanish tizimini tashkil etish orqali xizmat ko'rsatish subyektlari real vaqtda bozor narxlari, ob-havo sharoiti va dehqonchilik amaliyoti haqida ma'lumot berishni tashkil etish;
- raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali xizmat ko'rsatish sifati, tezkorligi va rentabelligini oshirish hamda aholi ko'nikmasini shakllantirishda oddiy hamda tushinarli metodlarni ishlab chiqish;
- Davlat xususiy sherikchilik asosida qishloq joylarda raqamli xizmat ko'rsatishni tashkil etishda mavjud qonunchilik bazasini takomillashtirish, raqamli xizmat ko'rsatish tasnifini ishlab chiqish va klasifikatorda aniq belgilab berish hamda ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatini qonuniylashtirish;
- "Aqlli qishloq" texnologiyasini davlat xususiy sherikchilik va tashqi investorlarni jalb qilish orqali qishloq farovonligini ta'minlash kabi ustuvor maqsadlarni amalga oshirish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yil-larga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5009-son Qarori. Toshkent sh., 2021-yil 26-fevral. www.lex.uz
2. Рангаджан, А., и Нишант, Р. (2018). АгроМарт: Онлайн-площадка для торговли сельскохозяйственной продукцией. Индийский журнал экономики сельского хозяйства, 73(3), 343-355.
3. Правительство Узбекистана. (2021). Программа "Цифровое Агро 2.0". Получено с <https://uzbekembassy.in/digital-agro-2-0-program>.
4. Группа Всемирного банка. (2018). Узбекистан: Проект внедрения сельскохозяйственных инноваций и технологий. Получено с <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2018/08/08/uzbekistan-agricultural-innovation-and-technology-adoption-project>.
5. Q. J. Mirzayev, M. Q. Pardayev, O. M. Pardayev "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. "IQTISOD-MOLIYA", –2014-yil. 384-b.
6. S. B. Boboqulov, G'. O. Akramov "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo'llari". <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/11/20/o-zbekistonda-raqamli-iqtisodiyoti-sharoitida-elektron-biznesni-rivojlantirish-yo-llari>.
7. G. F. Quvatova "Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish". <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/21538/14395>.
8. F. U. Begaliyev, O. M. Saydullayev "Qishloq xo'jaligini ("Aqlli" qishloq xo'jaligi)ga o'tkazishda raqamli texnologiyalarning o'rni". SSN (E): 2181-4570ResearchBib Impact Factor: 6,4/2023. <https://universalpublishings.com/~niverta1/index.php/jusr/article/view/2001/3834>.
9. Z. K. Raximov "Qishloq joylarda servis xizmat ko'rsatishni klaster asosida rivojlantirish". GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume: 36 | 2023. Economy and Innovation ISSN: 2545-0573.
10. https://wordbank.stanford.edu/data?name=item_trajectories
11. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.